

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

MARKAZIY OSIYO ATROF-MUHIT VA IQLIM O'ZGARISHINI O'RGANISH UNIVERSITETI (GREEN UNIVERSITY) FAOLIYATINI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

Bugungi kunda atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish bilan bog'liq global muammolar barqaror rivojlanishga e'tibor qaratish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida yangi formatdagi mutaxassislar va ekspertlarni tayyorlash, shuningdek, muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab etmoqda.

So'nggi yillarda ekologik kun tartibi O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirilib, atrof-muhitni muhofaza qilish, biologik xilma-xillikni saqlash, "yashil" iqtisodiyotga o'tish hamda qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish yo'nalishlarida konsepsiya va strategiyalar qabul qilindi.

Shu bilan birga, inson kapitalini rivojlantirish, ekologik xavflarni samarali boshqarish uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan yuqori malakali, xalqaro darajadagi mutaxassislarni tayyorlashning yaxlit tizimi yetarli emasligi, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatni boshqarish sohasidagi intellektual va ilmiy salohiyatdan to'liq foydalanish darajasining pastligi, shuningdek, mintaqaviy darajada barqaror rivojlanishning dolzarb masalalarini o'rganish bo'yicha yagona tadqiqot platformasi mavjud emasligi kabi qator muammolar ushbu sohaga alohida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda.

Mahalliy, mintaqaviy va global ekologik muammolarni samarali boshqarish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, O'zbekistonning ilmiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishda innovatsion g'oyalar, amaliyot va texnologiyalarni tatbiq etish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-son **Farmoniga** muvofiq Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University) (keyingi o'rinlarda — Universitet) tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Belgilansinki:

Universitet davlat oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi va uning faoliyati "Hub and Spoke" tamoyili asosida tashkil etiladi;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi (keyingi o'rinlarda — Vazirlik) Universitetning ta'sischisi hisoblanadi;

Universitetda o'quv jarayoni nufuzli xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

(2-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-dekabrdagi PF-243-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.12.2025-y., 06/25/243/1128-son)

3. Quyidagilar Universitetning asosiy vazifalari etib belgilansin:

O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasining muhim ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy muammolarini hal etishga qodir bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar, olimlar, tadqiqotchilar, rahbarlar va tadbirkorlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatni boshqarish va barqaror rivojlanish sohasida milliy, mintaqaviy va xalqaro innovatsion tizimlarni qo'llab-quvvatlash uchun yangi bilimlarni tatbiq etish va fanlararo tadqiqotlarni amalga oshirish;

jahonning yetakchi "yashil" universitetlari tomonidan qo'llaniladigan ilg'or ta'lim dasturlari, innovatsion pedagogik uslub va texnologiyalarni ishlab chiqish, moslashtirish va joriy etish;

ilmiy-tadqiqot va amaliy bilimlarni integratsiya qilish, klaster asosida faoliyatni yo'lga qo'yish, akademik va kasbiy tajriba almashish, ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini joriy qilish;

xorijiy, davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari, shuningdek, O'zbekiston, mintaq va jahon ilmiy markazlarini birlashtirishda bo'g'in bo'lib xizmat qiladigan samarali platforma yaratish;

ilmiy va ta'lim jarayonlarini boshqarishning eng samarali tizimini yaratish, xorijiy ilmiy ekspertlarni jalb etish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va xalqaro reytinglarda yetakchi o'rinlarni egallagan jahonning "yashil" universitetlari bilan strategik hamkorlik aloqalarini o'rnatish;

Universitetning xalqaro ta'lim maydonida tan olinishiga erishish, nufuzli oliy ta'lim muassasalari reytinglarida munosib o'rin egallash;

ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, o'rmon xo'jaligi va gidrometeorologiya sohasida mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish uchun uzluksiz ta'lim tizimini, shuningdek, boshqaruv xodimlari uchun maxsus ta'lim dasturlarini yaratish;

Universitet tarkibiga kiruvchi ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning moddiy-texnika bazasi hamda ilmiy kadrlar salohiyatini mustahkamlash.

4. Belgilansinki:

a) Universitet mustaqil ravishda:

Universitet shtat jadvalini tasdiqlaydi, bakalavriat va magistratura bosqichida o'qish tartibini belgilaydi;

xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalar asosida ta'lim yo'nalishlarini belgilaydi, ularning o'quv rejalari va dasturlarini tasdiqlaydi, professor-o'qituvchilar faoliyatini tartibga soladi;

yuqori malakali professor-o'qituvchilar, shu jumladan, xorijiy mutaxassislarni ularning mehnatiga haq to'lash miqdorlarini bozor konyunkturasidan kelib chiqqan holda jalb qiladi;

Vazirlik bilan kelishgan holda bakalavriat, magistratura va doktoranturaga qabul qilish shartlarini, shuningdek, talabalarni qabul qilish uchun test fanlari blokini va ta'lim uchun to'lov-kontrakt miqdorini belgilaydi;

innovatsion va ilmiy faoliyatni, shuningdek, ilm-fan yutuqlarini tijoratlashtiradi, moliyaviy resurslarni jalb qilish uchun tijorat va notijorat tashkilotlarni (startaplar, fondlar va boshqalar) tashkil etadi;

xorijiy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar bilan bevosita muzokaralar olib boradi, shuningdek, o'zining moliyaviy, iqtisodiy, ma'muriy va boshqaruv faoliyati masalalari bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

nashriyotlar va yetkazib beruvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish orqali, shu jumladan, xalqaro to'lov tizimlaridan foydalangan holda kitoblar, ixtisoslashtirilgan adabiyotlarni sotib olish, o'quv jurnallari, elektron kutubxonalar va boshqa o'quv resurslariga obuna bo'lish hamda inventarizatsiya qilishni bevosita amalga oshiradi;

b) Universitetda:

o'quv jarayoni kredit-modul tizimi asosida ma'ruza, laboratoriya va individual mashg'ulotlar, amaliy ishlar bo'yicha guruhlarda ishlash, tanqidiy fikrlash, masalani yechish va tajribalar yordamida amalga oshiriladi;

o'qish o'zbek, rus va ingliz tillarida olib boriladi, bakalavriatda O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim standartlari talablarini hisobga olgan holda ingliz tili va Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy tillaridan birida o'rgatiladi;

ta'lim jarayoni davlat granti va to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi;

o'quv jarayoni "fan — ta'lim — ishlab chiqarish integratsiyasi" tamoyili bo'yicha tashkil etilib, birinchi kursdan boshlab talabalarga ishlab chiqarish va ilmiy markazlarda, magistrantlarga esa "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali o'qishni yetakchi xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarida davom ettirish va nufuzli xorijiy kompaniyalarda malaka amaliyotini o'tash imkoniyati beriladi;

v) talabalarni qabul qilish parametrlari Vazirlik bilan kelishilgan holda Universitet tomonidan belgilanadi;

g) yetakchi, e'tirof etilgan xalqaro imtihon tizimlari (TOEFL, IELTS, CEFR, SAT General, SAT Subject va boshqalar) sertifikatlariga ega bo'lgan abituriyentlar tegishli fanlardan belgilangan tartibda eng yuqori ball oladi va kelgusida ular ushbu fanlardan imtihon topshirishdan ozod qilinadi;

d) har yili Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartib va shartlarga asosan Markaziy Osiyo davlatlari fuqarolari uchun bakalavr ta'lim yo'nalishi bo'yicha kamida 25 ta hamda magistratura va

doktorantura (PhD) mutaxassisliklari bo'yicha kamida 20 ta grant o'rinlari ajratiladi;

e) Universitet rektori ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri tomonidan 2023/2024 va 2024/2025 o'quv yillarga mo'ljallangan shartnomaga asosan tayinlanadi;

j) 2025/2026 o'quv yilidan boshlab Universitet rektori Universitetning Vasiylik kengashi talablariga asosan tashkil etiladigan xalqaro tanlov asosida 5 yil muddatga tuziladigan shartnomaga muvofiq ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri tomonidan tayinlanadi. Bunda rektor tomonidan shartnoma shartlari buzilgan holatlarda, vazir tashabbusi bilan shartnoma bir tomonlama bekor qilinishi mumkin;

z) Universitet bitiruvchilariga O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim to'g'risidagi hujjat sifatida tan olinadigan davlat namunasidagi diplom beriladi.

5. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq Universitetda iqtidorli talabalar ta'limini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat granti quyidagilarga beriladi:

tegishli xalqaro dasturlar (International Baccalaureate, Advanced Placement, International Advanced Levels) bo'yicha diplom yoki sertifikatga ega bo'lgan Prezident maktablarining bitiruvchilari;

Vazirlik tizimidagi ixtisoslashtirilgan texnikumlar bitiruvchilari ushbu muassasalar uchun ajratilgan qabul parametrlariga muvofiq kirish imtihonlari asosida;

Ekologiya bo'yicha xalqaro olimpiada (INEPO), Matematika bo'yicha xalqaro olimpiada (IMO), Fizika bo'yicha xalqaro olimpiada (IPO), Kimyo bo'yicha xalqaro olimpiada (ICO), Biologiya bo'yicha xalqaro olimpiada (IBO), Geografiya bo'yicha xalqaro olimpiada (IGO), Informatika bo'yicha xalqaro olimpiada (IIO) va Yer fani bo'yicha xalqaro olimpiada (IESO) g'oliblari;

Universitetga kirish imtihonlarida yuqori ball to'plagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;

Universitetga kirish imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirgan va "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimiga kiritilgan oilalarning farzandlari.

6. Quyidagilar:

Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti vasiylik kengashining tarkibi [1-ildovaga](#) muvofiq;

Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universitetining faoliyatini tashkil etish bo'yicha "yo'l xaritasi" [2-ildovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

7. Belgilansinki, Vasiylik kengashi Universitetning oliy boshqaruv organi hisoblanadi va quyidagilarni amalga oshiradi:

korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etgan holda, Universitetning rivojlanish strategiyasini, siyosatini va faoliyatining umumiy boshqaruvini tasdiqlash;

Universitetni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni tashkil etish, uning faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun budjetdan tashqari mablag'lar, homiylik xayriyalari va boshqa manbalarni jalb etishga ko'maklashish;

Universitetga ajratilgan binolarni ta'mirlash va tiklash uchun zarur mablag'larni safarbar etish, ushbu binolarni zamonaviy o'quv va laboratoriya jihozlari, inventar, kompyuter hamda boshqa tashkiliy jihozlar, kutubxona fondi bilan jihozlash;

Universitetga talabalarni qabul qilish va o'qitish shartlarini belgilash;

budjet ijrosi bo'yicha yillik hisobotlarni hamda Universitet faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni ko'rib chiqish va tasdiqlash;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Universitet tuzilmasini tasdiqlash va unga o'zgartirishlar kiritish;

Ekologiya jamg'armasi va Universitetning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan professor-o'qituvchilar tarkibi, boshqaruv va boshqa xodimlarni qo'shimcha moddiy rag'batlantirish, ustama va mukofotlar belgilash.

(7-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-sentabrdagi PF-149-sonli [Farmoniga](#) asosan yettinchi va sakkizinchi xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2024-y., 06/24/149/0772-son)

8. Vazirlik va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining:

Universitet tuzilmasida xayriya mablagʻlari hisobidan toʻldiriladigan maqsadli jamgʻarma (endowment fund) hamda Etnoekologiya ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish;

Universitetga 1 ta maktabgacha taʼlim tashkiloti va umumiy oʻrta taʼlim maktabini ularning taʼlim jarayonida sohadagi ilmiy va amaliy yondashuvlarni qoʻllash uchun biriktirish toʻgʻrisidagi takliflari maʼqullansin.

Oldingi tahrirga qarang.

Belgilansinki, Etnoekologiya ilmiy-tadqiqot markazi Toshkent shahri, Olmazor tumani, Zarqaynar koʻchasi, 1-uy manzilida joylashgan binoga bepul joylashtiriladi.

(8-bandning toʻrtinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PF-114-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 27.07.2023-y., 06/23/114/0527-son)

9. Quyidagilar Universitet faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib belgilansin:

Oʻzbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablagʻlari;

Vazirlikning Ekologiya jamgʻarmasi mablagʻlari;

toʻlov-kontrakt asosida oʻqitishdan tushadigan mablagʻlar;

xoʻjalik faoliyatidan va shartnoma asosida koʻrsatilgan xizmatlardan tushumlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya institutlari va xorijiy tashkilotlarning grantlari;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Belgilansinki, 2023-yilda Universitetni saqlash va xodimlarning mehnatiga haq toʻlash xarajatlari Vazirlikning Ekologiya jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan amalga oshiriladi, 2024-yildan esa Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

9¹. Belgilansinki, Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim oʻzgarishini oʻrganish universitetining xalqaro hamkorlik va aloqalar boʻlimi boshligʻi, reja-moliya boʻlimi boshligʻi, bosh auditor, bosh hisobchi lavozim maoshlari oliy taʼlim muassasasining fakultet dekani bazaviy lavozim maoshiga, boshqa boʻlim boshliqlari, markaz va direksiya rahbarlari, katta yuriskonsult, matbuot kotibi, ilmiy kengash kotibi va universitet kengashi kotibi lavozim maoshlari oliy taʼlim muassasasining fakultet dekani oʻrinbosari bazaviy lavozim maoshiga, boʻlim boshligʻi oʻrinbosarlari, bosh hisobchi oʻrinbosari, bosh energetik, bosh muhandis lavozim maoshlari oliy taʼlim muassasasining katta oʻqituvchi bazaviy lavozim maoshiga, bosh mutaxassis, bosh iqtisodchi, psixolog, oliy maʼlumotli yetakchi mutaxassis, uslubchi, ilmiy-tadqiqot ishlari boʻyicha muhandis, kabinet mudiri, buxgalter, iqtisodchi va kutubxonachi lavozim maoshlari oliy taʼlim muassasasining oʻqituvchi-stajyori bazaviy lavozim maoshiga tenglashtiriladi.

(9¹-band Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi PF-217-sonli Farmoniga asosan kiritilgan — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 19.11.2025-y., 06/25/217/1060-son)

10. Vazirlik:

a) bir oy muddatda:

Universitetning taʼsis hujjatlarini ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va belgilangan tartibda davlat roʻyxatidan oʻtkazishni taʼminlasin;

muzokaralar natijalari boʻyicha mahalliy va xorijiy oliy taʼlim tashkilotlari bilan uzoq muddatli kelishuvlarga erishish choralari koʻrsin;

2023/2024 oʻquv yilidan boshlab joriy etiladigan yoʻnalishlarni (mutaxassisliklarni) belgilasin;

b) ikki oy muddatda Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi koʻmagida Universitetni malakali professor-oʻqituvchilar va boshqaruv xodimlari, shu jumladan, xorijiy davlatlar mutaxassislari bilan taʼminlash choralari koʻrsin;

v) Universitetga homiylik, grant va budjetdan tashqari mablagʻlar, texnik yordam, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablagʻlarni jalb qilishda koʻmaklashsin.

11. Iqtisodiyot va moliya vazirligi Universitet uchun 2023-yil 1-sentabrga qadar 5 ta avtotransport vositasi, shu jumladan, 1 ta vakillik, 2 ta xizmat, 1 ta navbatchilik va 1 ta xizmat avtobusini xarid qilish hamda ularga texnik xizmat koʻrsatish uchun limit ajratsin.

12. “Uzbekistan Airways” AJ 2025-yil 31-dekabrga qadar boʻlgan muddatda Universitet uchun zarur boʻlgan adabiy fond va moddiy-texnik vositalarni begʻaraz tashilishini taʼminlasin.

13. Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Darxon qo'rg'oni, Chimkent yo'li ko'chasi 2-uy manzilida joylashgan O'rmon xo'jaligi texnikumining bino va inshootlari tutash hududi bilan birgalikda Universitetga operativ boshqarish huquqi bilan beg'araz berilsin.

14. Vazirlik hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2023-yil 1-oktabrga qadar:

Vazirlikning Ekologiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan Universitetni kompyuterlar va boshqa tashkiliy jihozlar, shu jumladan, masofaviy va onlayn ta'limni tashkil etish uchun zarur bo'lgan o'quv jihozlari bilan ta'minlasin;

Universitetni mebel (partalar, stollar, stullar va boshqalar), inventar, zamonaviy laboratoriya jihozlari, shuningdek, o'quv adabiyotlari va kutubxona fondi bilan — Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Fan, innovatsiya va oliy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan jihozlash choralari ko'rsin.

15. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda:

Universitetning axborot-resurs markazi faoliyatini yo'lga qo'ysin hamda o'quv jarayoni uchun zarur bo'lgan barcha modul va ilovalarning ulanishini ta'minlasin;

Universitet axborot-resurs markazining Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining elektron axborot-kutubxona resurslariga ulanishini tashkil etsin hamda barcha turdagi xizmatlardan, shu jumladan, tan olingan ilmiy nashriyot ma'lumotlar bazalaridan bepul foydalanish imkoniyatini yaratsin.

16. Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda Vazirlikning asosli hisob-kitoblariga ko'ra O'zbekiston Respublikasini 2023-yilda va undan keyingi yillarda rivojlantirish davlat dasturlarini shakllantirishda yangi bino va inshootlar qurish, Universitetning mavjud bino va inshootlarini rekonstruksiya qilish, shuningdek, unga tutash hududlarni obodonlashtirish uchun zarur mablag'lar ajratilishini nazarda tutsin.

Belgilansinki, 2026-yil 1-yanvarga qadar respublikada ishlab chiqarilmaydigan, o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatlar asosida Universitet uchun olib kiriladigan o'quv va ilmiy laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi, multimedia mahsulotlari, o'quv va ilmiy-metodik adabiyotlar, inventar va moddiy-texnika resurslari bojxona to'lovlarini to'lashdan (bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'imlar va qo'shilgan qiymat solig'idan tashqari) ozod qilinadi.

17. Tashqi ishlar vazirligi 2023/2024 o'quv yilidan boshlab Universitetning talabnomalariga muvofiq belgilangan tartibda:

ushbu qarorni amalga oshirish doirasida chet ellik o'qituvchilar, olimlar va mutaxassislariga, ularning oila a'zolariga konsullik va boshqa yig'imlar undirmagan holda bepul kirish vizalari, shuningdek, chet ellik talabalarga Universitetda o'qishning butun davri uchun uzoq muddatli ko'p martalik kirish vizalari berilishini ta'minlasin;

O'zbekiston Respublikasining elchixonalarini orqali Universitet kutubxona fondini yig'ish va yetkazib berishda ko'maklashsin.

18. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Universitetning talabnomalariga muvofiq respublikaga chet eldan o'qituvchilar, olimlar va mutaxassislarni jalb qilishga ruxsatnomalar berilishini (muddati uzaytirilishini), ularga respublika hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan tasdiqnomalar, shuningdek, sertifikatlar berilishini (muddati uzaytirilishini) ta'minlasin.

19. Belgilansinki, 2023-yil 1-sentabrdan boshlab:

a) oliy ta'lim muassasalarining ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, o'rmonchilik, "yashil" iqtisodiyot va gidrometeorologiya va boshqa talab yuqori bo'lgan yo'nalishlaridagi eng iqtidorli talabalari uchun Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri stipendiyasi ta'sis etiladi.

Bunda, to'lov-kontrakt asosida ta'lim olayotgan talabalarning bir yillik to'lov-kontrakt summasi qoplangan holda, har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravarida, davlat granti asosida ta'lim olayotgan talablarga har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 6 baravarida Ekologiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan stipendiyalar tayinlanadi;

b) talab yuqori bo'lgan yo'nalishlaridagi yetuk, istiqbolli mutaxassislar, ayniqsa, pedagog va ilmiy kadrlarni tanlash hamda ularning ta'lim olishini tashkil etish uchun:

"El-yurt umidi" jamg'armasining 2023 — 2026-yillarda xorijdagi nufuzli ta'lim tashkilotlarida ushbu yo'nalishlarda doktorantura (PhD) va magistraturada o'qitish dasturi (keyingi o'rinlarda — o'qitish dasturi) joriy qilinadi;

o‘qitish dasturi doirasida mutaxassislar xorijiy mamlakatlarning nufuzli ta’lim va ilmiy muassasalariga “El-yurt umidi” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan xorijda ta’lim olish uchun nomzodlarni tanlab olish tartibiga muvofiq yuboriladi;

o‘qitish dasturi doirasida 50 nafar iqtidorli mutaxassislar, shu jumladan, ularning 40 nafari magistratura bosqichida va 10 nafari doktorantura (PhD) bosqichida o‘qitiladi;

o‘qitish dasturi doirasida xorijiy ta’lim tashkilotlari va ilmiy muassasalarda tahsil olib, magistratura va doktoranturani bitirib qaytgan mutaxassislarga Vazirlikning yo‘llanmasi asosida ta’lim muassasalari hamda tegishli sohalardagi tashkilotlarda kamida 5 yil davomida uzluksiz faoliyat olib borish yoki xorijda ta’lim olish xarajatlarini 12 oy davomida ikki baravar miqdorda “El-yurt umidi” jamg‘armasiga qaytarish majburiyati yuklanadi.

20. Vazirlik Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

21. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2023-yil 31-may,
PQ-174-son

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PQ-
174-son qaroriga
1-ILOVA

Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti Vasiylik kengashi

TARKIBI

1.	A. Abduxakimov	—	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo‘yicha maslahatchisi — Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi raisi, Vasiylik kengashi raisi
2.	Lavozimi bo‘yicha	—	Markaziy Osiyo mamlakatlarining tegishli vazirliklari tomonidan tavsiya etiladigan nomzodlar, Vasiylik kengashi hamraisarlari (kelishuv asosida)
3.	A. Tuychiyev	—	Oliy Majlis Senati Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi raisi (kelishuv asosida)
4.	X. Gapparov	—	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi raisi (kelishuv asosida)
5.	S. Vaxba	—	Jahon banki Yevropa va Markaziy Osiyo uchun barqaror rivojlanish bo‘yicha mintaqaviy direktori (kelishuv asosida)
6.	S. Kim	—	Global yashil o‘shish instituti ijroiya direktori (kelishuv asosida)
7.	M. Mumba	—	Suvda suzuvchi qushlarning asosiy yashash manzili bo‘lgan xalqaro ahamiyatga ega suv-botqoq yerlar to‘g‘risidagi konvensiya Bosh kotibi (kelishuv asosida)
8.	I. Kutbiddinov	—	O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri o‘rinbosari
10.	B. Mamedov	—	Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi ijrochi direktori (kelishuv asosida)
11.	B. Pulatov	—	Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti rektori, Vasiylik kengashi kotibi

(1-ilovaning matni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 25-martdagi PQ-110-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.03.2026-y., 07/26/110/0287-son)

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PQ-
174-son qaroriga
2-ILOVA

Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim oʻzgarishini oʻrganish universitetining faoliyatini yoʻlga qoʻyish boʻyicha

“YOʻL XARITASI”

T/r	Chora-tadbirlarning nomlanishi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
I. Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim oʻzgarishini oʻrganish universitetida (keyingi oʻrinlarda — Universitet) ta'lim sifatini oshirish va yuqori malakali kadrlarni tayyorlash					
1.	Zarur yangi oʻquv rejalari va fan dasturlari, oʻquv-metodik materiallarni ishlab chiqish.	1. Universitet ta'lim yoʻnalishlari boʻyicha oʻquv rejalari va fan dasturlarini ishlab chiqish yuzasidan professor-oʻqituvchilar tarkibi va jalb qilingan ekspertlar orasidan ishchi guruhlar tuzish. 2. Ta'lim standartlari, malaka talablari, oʻquv rejalari va dasturlari, shuningdek, talabalar bilimini baholash tizimini ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlash. 3. Yangi oʻquv reja joriy qilingan akademik guruhlarda, kafedralar yigʻilishlari, fakultet va universitet kengashlarida buyurtmachi tashkilotlar, talabalar amaliyot oʻtashini ta'minlagan tashkilotlar ishtirokida bitiruvchilar erishgan kasb malakalaridan kelib chiqib tanqidiy tahlil oʻtkazish, oʻquv rejasi va fan dasturlarini zamon talablari asosida takomillashtirish hamda oʻquv jarayoniga joriy etish.	2023-yil iyun 2023/2024 oʻquv yili 2023/2024 oʻquv yili yakuni	-	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Universitet
2.	Universitetda kafedralar tizimini tashkil etish.	1. Tarmoq mutaxassislaridan iborat ishchi guruh tuzish. 2. Ishchi guruh tomonidan universitetda, iqtisodiyot tarmoqlarida va hududlarda yangidan tashkil etilishi zarur boʻlgan kafedralar roʻyxatini shakllantirish hamda asoslash. 3. Kafedralar faoliyatini boshlash muddatlarini belgilash. 4. Kafedralar nizomlarini ishlab chiqish, ularni oʻquv-uslubiy va boshqa hujjatlar bilan ta'minlash. 5. Kafedralarda professor-oʻqituvchilar tarkibini shakllantirish hamda kafedralar faoliyatini toʻlaqonli yoʻlga qoʻyish.	2023-yil iyun 2023-yil iyul 2023/2024 oʻquv yili 2023-yil iyul 2023-yil sentabr	-	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Universitet
II. Universitetda ta'lim jarayonini tashkil etish					
3.	Universitetda xalqaro ta'lim standartlari asosida ta'lim jarayonini tashkil etish.	1. Universitetda tegishli ta'lim yoʻnalishlari va mutaxassisliklari boʻyicha oʻqitishni tashkil etish maqsadida respublikamizdagi yetakchi ilmiy xodimlar, mutaxassislar va professor-oʻqituvchilarni jalb qilish. 2. Oʻquv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlari asosida oʻqitishning ilgʻor texnologiyalari va metodlarini tatbiq etish. 3. Tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish yoʻnalishidagi ta'lim muassasalariga metodik va amaliy koʻmak koʻrsatish. 4. Nufuzli xorijiy ta'lim muassasalari bilan qoʻshma dasturlar asosida oʻqitishni yoʻlga qoʻyish maqsadida hamkorlik memorandumlarini tuzish va imzolash. 5. Universitetda elektron oʻqitish tarmogʻini yaratish.	2023/2024 oʻquv yilidan boshlab doimiy 2023-2024-yillar 2023-2024 oʻquv yili	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligining budget va budgetdan tashqari mablagʻlari doirasida	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi, Universitet
4.	Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologiya masalalariga bagʻishlab iste'dodli talabalarining xalqaro ilmiy-ijodiy forumini oʻtkazish.	1. Universitetning faol va iste'dodli talabalarini ilmiy-tadqiqot va ijodiy guruhlarga jalb qilish. 2. Universitet hududida buk-kafe tashkil qilish. 3. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi masalalariga bagʻishlangan xalqaro ilmiy-ijodiy forum tashkil etish.	Doimiy 2023-yil noyabr	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligining budget va budgetdan tashqari mablagʻlari doirasida	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi, Universitet

5.	Amaliyotda talab yuqori boʻlgan mutaxassislarni maqsadli tayyorlashni ta'minlash hamda shu asosda ta'lim mutaxassisliklari va yoʻnalishlari boʻyicha kadrlarni tayyorlashga har yillik maqsadli buyurtmalar portfelini shakllantirish.	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi sohasidagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, tijoriy tuzilmalar va nodavlat tashkilotlarning kadrlarga boʻlgan joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini kompleks tahlil qiluvchi doimiy ishlaydigan tizimni yaratish.	2023/2024 oʻquv yilidan boshlab	-	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Universitet
III. Tashkilotlar bazasida malakaviy amaliyotlarni tashkil etish					
6.	Talabalarda amaliy va ishlab chiqarish koʻnikmalarini shakllantirishda ish beruvchi tashkilotlarning ishtirokini oshirish va mas'uliyatini belgilash.	1. Universitet talabalarining amaliyotini tashkil etish boʻyicha amaliyot oʻtash obyektlari — ish beruvchi tashkilotlar toʻgʻrisidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish. 2. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etgan yetakchi tashkilotlar bilan talabalarining amaliyot oʻtashi boʻyicha oʻzaro hamkorlik shartnomalarini tuzishda ish beruvchi tashkilotlarning talabalarda amaliy va ishlab chiqarish koʻnikmalarini shakllantirish majburiyatlarini e'tiborga olish. 3. Buyurtmachi tashkilotlar tomonidan muntazam ravishda boʻsh ish oʻrinlari yarmarkalarini oʻtkazish. 4. Talabalar amaliyotini tashkilotlar bazasida oʻtkazish, ularning amaliyot oʻtashlari uchun zarur jihoz va texnikalar, transport vositalari, yashash sharoitlari bilan ta'minlash.	2023-yil noyabr 2023-yil dekabr har yili 2023/2024 oʻquv yili		Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, Universitet
7.	Talabalarining sohadagi muayyan korxonalar va tashkilotlarda amaliy mashgʻulotlar hamda malakaviy amaliyotlar oʻtishini tashkil qilish.	1. Tarmoqning nazariy va amaliy muammolaridan kelib chiqib, shuningdek, ilgʻor xorijiy tajriba va ilmiy tadqiqotlar natijalarini inobatga olgan holda ta'lim yoʻnalishlari va mutaxassisliklari uchun oʻquv-dala amaliyoti va malakaviy amaliyot dasturlarini yaratish. 2. Tahsil olayotgan talabalar kontingentini tegishli korxonalar va tashkilotlarga biriktirish, shuningdek, ta'lim yoʻnalishi xususiyatidan kelib chiqqan holda ular bilan tegishli shartnomalar tuzish. 3. Shartnomalar va jadval asosida talabalarining amaliy mashgʻulotlari va malakaviy amaliyotini tashkil etish, mazkur jarayonni nazorat qilish uchun Universitetning mas'ul vakillarini tayinlash.	2024-yil mart 2023/2024 oʻquv yilidan boshlab muntazam ravishda	Amaliyotga biriktirilgan tashkilotlar mablagʻlari doirasida	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, Universitet, manfaatdor korxona va tashkilotlar
8.	Universitet professor-oʻqituvchilar tarkibi va ilmiy xodimlarining yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarda stajirovka oʻtash va malaka oshirishini tashkil etish.	1. Xorijiy mamlakatlarning sohadagi yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tahliliy markazlari bilan xalqaro aloqalarni yoʻlga qoʻyish va chuqurlashtirish boʻyicha 2023 — 2025-yillarga moʻljallangan chora-tadbirlar dasturini tayyorlash. 2. Tegishli xorijiy tashkilotlar bilan muzokaralar oʻtkazish. 3. “El-yurt umidi” jamgʻarmasi bilan hamkorlikda stajirovka va malaka oshirishni tashkil qilish jadvalini tuzish, kelishish va tasdiqlash. 4. Stajirovka va malaka oshirish kurslarining samarali va oʻz vaqtida tashkil qilinishini ta'minlash.	2023-yil oktabr 2023-yil dekabr 2023-yil fevral belgilangan muddatlarda	“El-yurt umidi” jamgʻarmasi mablagʻlari, Universitetning budjet va budjetdan tashqari mablagʻlari	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Universitet
IV. Ilmiy-tadqiqot va innovatsiyani rivojlantirish					

9.	Xalqaro (shu jumladan, hamkorlikdagi) ilmiy-tadqiqot grant loyihalarini amalga oshirish.	1. Xorijiy davlatlar oliy ta'lim va ilmiy muassasalari bilan aloqalar o'rnatish, qo'shma konferensiyalar, simpoziumlar, seminarlar tashkil etish bo'yicha kelishuvlarga erishish. 2. Xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish, ilmiy ishlarni olib borish bo'yicha takliflar tayyorlash va dasturini tasdiqlash hamda o'z faoliyat yo'nalishida ishlarni tashkil etish. 3. Sohaga ilg'or ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini joriy etish maqsadida ixtisoslashgan kompaniyalar bilan hamkorlikni amalga oshirish hamda ushbu ishlarga nufuzli xalqaro universitetlarni jalb qilish. 4. Barcha ilmiy-tadqiqot ishlari, loyihalar va grantlarning bajarilishini tizimli monitoring qilish.	har yili 20-sentabrga qadar har yili 30-sentabrga qadar 2024-yil aprel har chorakda	Xalqaro grantlar va xorijiy hamkorlarning mablag'lari, Ekologiya jamg'armasi mablag'lari	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Universitet
10.	Ilmiy-tadqiqot institutlarida ilmiy maktablarni shakllantirishga ko'maklashish hamda "fan — ta'lim — ishlab chiqarish integratsiyasi" tamoyili asosida ilmiy faoliyatni yo'lga qo'yish.	1. Magistratura, stajyor-tadqiqotchilik va katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutini rivojlantirish orqali yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlash. 2. Ilmiy ishlar olib boruvchi kafedralar faoliyatini tashkil etish va rag'batlantirish. 3. Ilmiy faoliyatni rivojlantirish uchun moddiy-texnik bazani yaratish, tegishli ilmiy uskunalar bilan ta'minlash. 4. Ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyatiga iqtidorli magistrantlarni jalb qilish. 5. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi sohasi tarmoq tashkilotlarining muammolari tematik bazasini shakllantirish. 6. Davlat grantlari va xo'jalik shartnomalari, bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalarining tematik bazadan foydalangan holda bajarilishini tashkil etish.	2023/2024 o'quv yilidan boshlab muntazam ravishda	Universitetning budget va budgetdan tashqari mablag'lari doirasida	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Universitet
11.	Universitetda yirik ishlab chiqarish tashkilotlarining dolzarb muammolari yechimiga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun doktorantlarni maqsadli tayyorlash.	1. Dolzarb muammolardan kelib chiqib, ilmiy-tadqiqot institutlari va kafedralarning yo'nalishlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash. 2. Doktorantura ilmiy yo'nalishlarini sohaga tegishli tashkilotlarning mutaxassislarini ilmiy-texnik kengashlarida ishtirokini ta'minlash orqali hamkorlikni amalga oshirish. 3. Doktorantura tadqiqotchilariga ilmiy rahbar sifatida mahalliy va xorijiy salohiyatli ilmiy kadrlarni jalb etish. 4. Har yili tanlov asosida iqtidorli yoshlarni doktoranturaga qabul qilish.	Doimiy	Universitetning budget va budgetdan tashqari mablag'lari doirasida	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Universitet
12.	Universitetning ilmiy salohiyatini oshirish.	1. Yosh o'qituvchi va ilmiy xodimlarni xorijiy va respublika ta'lim tashkilotlari hamda ilmiy-tadqiqot institutlariga biriktirish. 2. Universitetning axborot-resurs markazini xorijiy ilmiy jurnallar, yetakchi davriy nashrlar bilan ta'minlash. 3. Universitet professor-o'qituvchilarini xorijda o'tkaziladigan xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar va seminarlarda ishtirok etishini tashkil etish va ta'minlash.	Doimiy	Universitetning budget va budgetdan tashqari mablag'lari doirasida	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Universitet
13.	Davlat qo'riqxonalari bufer zonalari, milliy tabiat bog'lari, pitomniklar, o'rmon va o'rmon-ov xo'jaliklari, tog'li va cho'l hududlarida Universitetning dala tadqiqotlari (dala laboratoriyalari) maydonlarini tashkil qilish.	1. Dala tadqiqotlari o'tkazish hududlarni aniqlash. 2. Dala tadqiqotlari maydonlarini tashkil qilish. 3. Universitet talabalarining dala tadqiqotlari maydonlarida amaliyotlarini o'tkazib borish.	2023-yil avgust doimiy	-	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi

V. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish

14.	Yashash joylarini ijaraga oluvchi talabalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish.	1. Ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlari, fuqarolar yigʻinlari vakillarini jalb qilgan holda, talabalarning turmush kechirish, darslarga tayyorlanish, dam olish va boshqa hayotiy ahamiyatga molik shart-sharoitlarini va ijtimoiy-ma'naviy muhitni oʻrganish. 2. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish boʻyicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.	doimiy	-	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Universitet
15.	Universitet hududida amaliy ishlab chiqarish maydonlari (media markaz, buk-kafe, Wi-Fi zonalar, munozara klublari va boshqalar)ni tashkil qilish.	1. Universitetda amaliy ishlab chiqarish maydonlari loyihasini (dizaynini) yaratish. 2. Amaliy ishlab chiqarish maydonlarini tashkil etish maqsadida grantlar va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablagʻlarni jalb qilish. 3. Obyektlarning toʻlaqonli ishlashini ta'minlash.	2023-2024-yillar davomida	Xorijiy tashkilotlarning grant mablagʻlari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Universitet
16.	“Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi sohasini rivojlantirish boʻyicha eng yaxshi tashabbuslar” respublika tanlovini tashkil qilish.	1. Tanlovni oʻtkazish boʻyicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. 2. Tanlovni ommaviy axborot vositalarida keng yoritgan holda tashkil qilish va oʻtkazish.	har oʻquv yilida	-	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Universitet

VI. Universitet hududida qurilish-montaj ishlarini olib borish va uning hududini obodonlashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash

17.	Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Darxon qoʻrgʻoni, Chimkent yoʻli koʻchasi 2-uy manzilida joylashgan Oʻrmon xoʻjaligi texnikumining bino va inshootlarini tutash hududi bilan birgalikda Universitetga operativ boshqaruv huquqi asosida bepul oʻtkazib berish.	Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Darxon qoʻrgʻoni, Chimkent yoʻli koʻchasi 2-uy manzilida bino va inshootlarini tutash hududi bilan birgalikda bepul oʻtkazib berish boʻyicha qabul qilish-topshirish dalolatnomasi rasmiylashtirilishini ta'minlash.	2023-yil iyun	-	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Oʻrmon xoʻjaligi agentligi, Buxoro viloyati hokimligi
18.	Buxoro shahri, B. Naqshband koʻchasi yoqasida joylashgan 1-passaj binosini Etnoekologiya ilmiy-tadqiqot markaziga bepul oʻtkazib berish.	Buxoro shahri, B. Naqshband koʻchasi yoqasida joylashgan 1-passaj binosini bepul oʻtkazib berish boʻyicha qabul qilish-topshirish dalolatnomasi rasmiylashtirilishini ta'minlash.	2023-yil iyun	-	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Oʻrmon xoʻjaligi agentligi, Buxoro viloyati hokimligi
19.	Toshkent viloyati Boʻstonliq tumanidagi Boʻstonliq oʻrmon xoʻjaligi va servis kasb-hunar kolleji va uning bino va inshootlarini Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim oʻzgarishini oʻrganish universitetiga tasarrufiga bepul oʻtkazib berish.	Boʻstonliq oʻrmon xoʻjaligi va servis kasb-hunar kolleji va uning bino va inshootlarini bepul oʻtkazib berish boʻyicha qabul qilish-topshirish dalolatnomasi rasmiylashtirilishini ta'minlash.	2023-yil iyun	-	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Madaniyat va turizm vazirligi

20.	Zarur infratuzilmani yaratish va Universitet faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun birinchi bosqichda kerakli kompleks ishlarni amalga oshirish.	1. Universitet bino va inshootlarini ta'mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish. 2. Universitetni kompyuter va boshqa orgtexnika, o'qitishning texnik vositalari, shu jumladan masofaviy va onlayn ta'limni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan texnikalar, o'quv adabiyotlari va kutubxona fondi bilan ta'minlash. 3. Universitetni mebel (doskalar, partalar, stollar, stullar va boshqalar), inventar, zamonaviy laboratoriya uskunalari bilan jihozlash, shuningdek, o'quv adabiyotlari va kutubxona fondi bilan ta'minlash. 4. Universitet bino va inshootlarini rekonstruksiya qilish ishlarini bajarish, unga tutash hududdagi yo'llar sifatini yaxshilash, yegishli infratuzilma, kommunikatsiya tarmoqlari, yo'l-axborot ko'rsatkichlari bilan ta'minlash. 5. Tegishli uskunalar bilan jihozlagan holda, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini tortish bo'yicha barcha zarur ishlarni bajarish. 6. Universitetni optik tolali liniya orqali Internet tarmog'iga va axborot-ta'limiy portallarga ulash.	2023-yil avgust	Ekologiya jamg'armasi, Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari	Toshkent shahri hokimligi, Toshkent viloyati hokimligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jalik vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
21.	Universitetning rasmiy veb-saytini yaratish.	1. Veb-saytni ishlab chiqish bo'yicha ijrochilarni aniqlash va ular bilan shartnoma tuzish. 2. Veb-saytning internet tarmog'ida to'laqonli ishlashini ta'minlash. 3. Veb-saytni dolzarb va zarur axborot bilan doimiy ravishda yangilab borish.	2023-yil sentabr	Ekologiya jamg'armasi mablag'lari	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Universitet
VII. Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi faoliyatini takomillashtirish					
22.	Vazirlik markaziy apparati, tizim tashkilotlari hududiy bo'linmalari, O'rmon xo'jaligi agentligi va hududiy bo'linmalari mutaxassislarining malakasini oshirishni tashkil etish.	1. Tinglovchilar kontingentini shakllantirish. 2. Sohalar bo'yicha o'quv reja va dasturlarni ishlab chiqish hamda belgilangan tartibda tasdiqlash. 3. Tasdiqlangan o'quv reja va dasturlar asosida malaka oshirish kurslarini tashkil etish. 4. Davlat ta'lim talablari asosida har ikki yilda bir marta majburiy tartibda malaka oshirish kurslarida o'qitish.	2023-yil iyun 2023-yil iyun 2023-yil iyun —dekabr	Ekologiya jamg'armasi mablag'lari	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Universitet
23.	Atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning I va IV toifalariga mansub korxona va tashkilotlar ekolog mutaxassislarining atmosfera havosini tozalash, oqova suvlarni tozalash tizimi va tuproq zararlanishining oldini olish hamda foydalanishda bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar bo'yicha malakasini oshirishni tashkil etish.	1. O'quv reja va dastur ishlab chiqish hamda o'rnatilgan tartibda tasdiqlash, dastur asosida malaka oshirish kurslarini tashkil etish. 2. Davlat ta'lim talablari asosida har ikki yilda bir marta majburiy tartibda malaka oshirish kurslarida o'qitish.	2023-yil iyun 2023-yil iyun —dekabr	Xo'jalik yurituvchi subyektlar mablag'lari	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Universitet
24.	Davlat ta'lim talablari asosida (360 hamda 576 soatlik) qayta tayyorlash kurslarini yo'lga qo'yish.	1. Tinglovchilar kontingentini shakllantirish. 2. O'quv reja va dastur ishlab chiqish va o'rnatilgan tartibda tasdiqlash. 3. Reja-jadval asosida qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish.	2023-yil iyun 2023-yil avgust Reja-jadval asosida	Tinglovchilar hisobidan	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Universitet
25.	Markaz moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.	Markaz moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, bunda: 100 dona o'quv-amaliyot plansheti; 4 dona elektron o'quv doska; 20 dona kompyuter jamlanmasi; mobil laboratoriya avtomobili; Tuproq, suv, atmosfera tahlili uchun o'quv laboratoriya jihozlari.	2023-yil dekabr	Xalqaro grantlar mablag'lari	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Universitet

26.	Malaka oshirish kurslari bo'yicha sertifikatga ega bo'lgan tinglovchilarga sertifikat muddati tugagunga qadar oylik ish haqiga qo'shimcha to'lovlarni amalga oshirishni yo'lga qo'yish.	1. Markaz tomonidan berilgan sertifikatga asosan sertifikatning amal qilish davrigacha mutaxassislarning lavozim maoshiga har oyda 20 foizdan kam bo'lmagan miqdorda ish beruvchilar tomonidan qo'shimcha to'lovni amalga oshirish. 2. Davlat ta'lim talablari asosida har ikki yilda bir marta majburiy tartibda malaka oshirish kurslarida o'qitish.	Sertifikat amal qilish muddati tugagunga qadar (2 yil)	Xo'jalik yurituvchi subyektlar mablag'lari	Xo'jalik yurituvchi subyektlar
27.	“Ekota'lim” elektron platformasi loyihasini ishlab chiqish.	1. “Ekota'lim” elektron platformasi loyihasini ishlab chiqish. 2. Platformani moliyalashtirishni amalga oshirish va uni ishga tushirish. 3. Tinglovchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini real vaqt bo'yicha inson omilisiz elektron baholab borish.	2023-yil sentabr 2023-yil oktabr 2023-yil noyabr doimiy	Ekologiya jamg'armasi mablag'lari	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Universitet
28.	Vazirlik xodimlarini ularning malakasini oshirish uchun “El-yurt umidi” jamg'armasi orqali rivojlangan davlatlar universitetlari va tadqiqot markazlariga yuborish: ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish maqsadida 5 nafar magistr (2 yil); ilmiy ish olib borish uchun 2 nafar PhD tadqiqotchisi (3 yil); amaliy bilim va stajirovka o'tash maqsadida sohada faoliyat olib borayotgan 43 nafar mutaxassis (6 oydan 1 yilgacha); xodimlarining tajriba almashish maqsadida (1,2 oy) malaka oshirishini ta'minlash; markaz xodimlarining o'quv dasturlarni ishlab chiqish bo'yicha xorijda qisqa muddatli seminar-treninglarda ishtirokini ta'minlash.	1. Xorijiy davlatlarga yuboriladigan mutaxassislar ro'yxatini shakllantirish va “El-yurt umidi” jamg'armasiga taqdim etish. 2. “El-yurt umidi” jamg'armasi bilan hamkorlikda xorijiy rivojlangan mamlakatlardagi korxonalar va ta'lim tashkilotlarini aniqlash. 3. “El-yurt umidi” jamg'armasi orqali rivojlangan xorijiy korxonalar va ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish.	2023-yil davomida	“El-yurt umidi” jamg'armasi mablag'lari, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining budjetdan tashqari mablag'lari	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Universitet, “El-yurt umidi” jamg'armasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
VIII. O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy faoliyatini rivojlantirish					
29.	O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti (keyingi o'rinlarda — Institut)da yaratilgan ilmiy ishlanmalarni (patentlar, texnologiyalar, dasturiy mahsulotlar) tijoratlashtirishni yo'lga qo'yish.	1. Institut tuzilmasida ilmiy ishlanmalarni patentlashtirish va tijoratlashtirish bo'limini tashkil etish. 2. Yaratilgan ilmiy ishlanmalar (patentlar, texnologiyalar, dasturiy mahsulotlar)ni o'rmon xo'jaliklaridagi ishlab chiqarish amaliyotiga joriy etish va undan tushgan pul mablag'larining bir qismini Institutga yo'naltirishning huquqiy asoslarini ishlab chiqish. 3. O'rmon xo'jaliklarida daraxt-buta ko'chatlarini yetishtirish va daraxtzorlarni barpo etish ishlarini Institut tomonidan ishlab chiqilgan tavsiya hamda texnologiyalar asosida amalga oshirish. 4. O'rmon xo'jaliklarda ilmiy asosda yetishtirilgan ko'chatlarni sotishdan tushadigan umumiy daromadning 5 foizini ishlanma muallifi (institut)ga shartnoma asosida o'tkazish tizimini yo'lga qo'yish. 5. Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va marketingini tashkil etish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Jizzax viloyatlarida ko'rgazmali yarmarkalarni tashkil etish.	2023-yil avgust 2023-yil sentabr 2023 — 2025-yillar 2023 — 2025-yillar 2023-yil sentabr, oktabr	Mablag' talab etilmaydi	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, O'rmon xo'jaligi agentligi, Universitet

30.	Qurg'ochchil sharoitda daraxt-buta ko'chatlarini yetishtirish hamda madaniy o'rmonlar barpo etishning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish.	1. Xalqaro UEFRO va KOICA tashkilotlari bilan daraxt-buta ko'chatlarini zamonaviy "smart" issiqxona va kichik hajmli ko'chatxona sharoitida yetishtirish bo'yicha tadqiqotlarni yo'lga qo'yish yuzasidan hamkorlik kelishuvlarni tashkil etish. 2. Institut qoshida daraxt-buta ko'chatlarini jadal yetishtirish bo'yicha 1 ta zamonaviy issiqxona tashkil etish. 3. Tog' va tog'oldi maydonlarda archa o'rmonlarini tiklash uchun ko'chatlarni zamonaviy konteynerlar (briket, kasseta, rulon)da yetishtirish. 4. Lalmi tog' va cho'l sharoitlarida nam saqlovchi polimer mahsulotlar (gidrogellar, kompozitsion mahsulotlar, kapsulalar) hamda o'stiruvchi biologik moddalar (stimulyator, gummat oziqalar) yordamida madaniy o'rmon barpo etish va ko'chatlar ko'karuvchanligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni bajarish. 5. To'qay hududlarida daryo qirg'oqlarini yuvilishdan saqlash va mustahkamlash uchun turang'il, qayrag'och, shumtol, jiyda, chakanda daraxt-buta o'simliklaridan o'rmon barpo etish usullarini ishlab chiqish.	2023-yil oktabr 2024-yil dekabr 2024-yil oktabr 2024-yil mart 2025-yil fevral	Mablag' talab etilmaydi Xalqaro tashkilotlar mablag'lari (500 mln so'm) Ilmiy loyihalarga ajratiladigan mablag'lar (3,0 mlrd so'm)	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, O'rmon xo'jaligi agentligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Universitet
31.	Institut tashkiliy tuzilmasida Qoraqalpog'iston sharoitida o'rmon yo'nalishlarida doimiy tadqiqotlarni olib borishga ixtisoslashgan Qoraqalpog'iston ilmiy-tajriba stansiyasini tashkil etish.	1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus tumanidan tajriba stansiyasi uchun bino qurish va tajriba o'tkazish uchun 10 ga yer maydonini ajratish. 2. Qoraqalpog'iston ilmiy-tajriba stansiyasining moddiy-texnika bazasini yaratish. 3. Yangidan tashkil etilgan tajriba stansiyasida cho'l sharoitiga bardoshli daraxt-buta ko'chatlarini yetishtirish hamda daraxtzorlarni barpo etishning ilg'or texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy loyihalarni amalga oshirish.	2023-yil sentabr 2024-yil mart 2023-2024-yillar	Mahalliy budjet (6 mlrd so'm) Mahalliy budjet (2 mlrd so'm) Ilmiy loyihalarga ajratiladigan mablag'lari hisobidan (1,5 mlrd so'm)	Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, O'rmon xo'jaligi agentligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Universitet

32.	Institut tashkiliy tuzilmasida Toshkent viloyatida Chotqol tog' o'rmon meliorativ tajriba stansiyasi va uning Jizzax viloyati Zomin tumanida Kulsay tayanch punktini qayta tiklashni tashkil etish.	1. Toshkent viloyati Saksonota davlat o'rmon ishlab chiqarish korxonasiga qarashli Suqoq bo'limini tugatib, Institut negizida Chotqol tog' o'rmon meliorativ tajriba stansiyasini qayta tashkil etish.	2023-yil oktabr	Mablag' talab etilmaydi	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, O'rmon xo'jaligi agentligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazir??ligi, Universitet
		2. Zomin qo'riqxonasiga qarashli Kulsay tayanch punktini tugatib, Institut negizida qayta tashkil etish.	2023-yil oktabr	Mablag' talab etilmaydi	
		3. Tog' hududlaridagi tuproq degradatsiyasiga qarshi o'rmon ko'chatlarini ekish va sel oqimlarini to'xtatish bo'yicha ilmiy loyihalar tanlovini o'tkazish va tadqiqotlarni bajarish.	2024-yil noyabr	Ijrochilar mablag'lari	
		4. Tog' yaylovzorlarini tiklash, saqlash va unumdorligini oshirish bo'yicha ilmiy loyihalar tanlovini o'tkazish va tadqiqotlarni bajarish.	2025-yil mart	Ilmiy loyihalar uchun ajratiladigan mablag'lar hisobidan (2,0 mlrd so'm)	
33.	O'rmon xo'jaliklarida musbat belgiga ega daraxt-buta turlarining birlamchi urug'chilik plantatsiyalarini barpo etish.	1. O'rmon fondi yerlarida tarqalgan daraxt-buta o'simliklarning musbat belgili turlarini tanlash bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borish.	2023-yil oktabr	Mablag' talab etilmaydi	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, O'rmon xo'jaligi agentligi, Universitet
		2. Buxoro tajriba stansiyasida jami 1,0 ga maydonda saksovulning "Jondor" navining doimiy urug'chilik plantatsiyasini tashkil etish.	2023-yil oktabr	Xo'jalik mablag'lari hisobidan (100 mln. so'm)	
		3. Navoiy viloyati cho'l o'rmonchiligini rivojlantirish markazida jami 1,0 ga qayrog'och va shumtol daraxtlarining urug'chilik plantatsiyalarini barpo etish.	2024-yil oktabr		
		4. Farg'ona va Qashqadaryo viloyatlari davlat o'rmon xo'jaliklarida shumtol va oq akatsiya daraxtlarining urug'chilik plantatsiyalarini tashkil etish.	2025-yil oktabr	Xo'jalik mablag'lari hisobidan (100 mln. so'm)	
34.	"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ekilgan daraxtzorlarni xavfli zararkunanda va kasalliklardan himoya qilishning zamonaviy biologik kurash choralarini qo'llash.	1. Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani va Jizzax viloyati Zomin tumani sharoitida ekilgan daraxt-buta o'simliklarida entomologik va fitopatologik kuzatuvlar olib borish.	2023-yil iyun	Mablag' talab etilmaydi	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, O'rmon xo'jaligi agentligi, Universitet
		2. Laboratoriya sharoitida kasallik va zararkunandalarning tur tarkibini aniqlash.	2023-yil iyul		
		3. Aniqlangan kasallik va zararkunanda turlariga qarshi laboratoriya va dala sharoitida uyg'unlashgan kurash choralarini olib borish.	2023-yil iyul	Xo'jalik va subyektlar mablag'lari hisobidan (300 mln so'm)	
		4. Zararkunanda va kasalliklarga qarshi mikrobiologik preparatlar (prestij, prestij plyus, lipitatsid, fitolavin, sporangin)ni vegetatsiya davrida qo'llash.	2023-yil avgust		
		5. Foydali entomofag hasharotlarni zararkunanda lichinkalarining birinchi, ikkinchi, uchinchi rivojlanishda qo'llash.	2023-yil avgust	Xo'jalik va subyektlar mablag'lari hisobidan (300 mln so'm)	

35.	Oʻrmon fondi yerlarida oʻrmondan qoʻshimcha foydalanish uchun dorivor oʻsimliklarni yetishtirish texnologiyalarini ishlab chiqish.	1. Andijon filialining 2,0 ga maydonida dorivor lavanda va kovul oʻsimligining koʻchatlarini yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish. 2. Toshkent viloyati Saksonota davlat oʻrmon ishlab chiqarish korxonasida dorivor valeriana va diaskareya oʻsimliklarini yetishtirish usullarini ishlab chiqish. 3. Toshkent va Navoiy viloyati tajriba stansiyalarida dorivor godji koʻchatlarini yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish. 4. Toshkent viloyati Burchmulla davlat oʻrmon xoʻjaligida manzarali hamda dorivor evodiya daniela va meliya daraxt koʻchatlarini yetishtirish agrotexnologiyalarini ishlab chiqish.	2023-yil oktabr 2024-yil noyabr 2024-yil noyabr 2025-yil noyabr	Ijrochilar mablagʻlari hisobidan (3,0 mlrd soʻm)	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oʻrmon xoʻjaligi agentligi, Universitet
36.	Vegetativ va generativ usullarda qiyin koʻpayadigan daraxt-buta oʻsimliklarini yetishtirishni yoʻlga qoʻyish.	1. Institut in-vitro laboratoriyasida iqlimlashtirish xonasini jihozlash va 0,01 ga maydonda issiqxona tashkil etish. 2. Xorijdan keltirilgan manzarali va dorivor evodiya daniela, meliya hamda yogʻochbop pavlovniyaning “Shank-Tong” navi, golubika daraxt va buta turlarini mikroklonal usulda koʻpaytirish uchun donor oʻsimliklarni tanlab olish. 3. Tanlab olingan donor daraxt-buta oʻsimlik hujayralaridan koʻpaytirish uchun laboratoriya sharoitida eksplantlar (urugʻlik material) tayyorlash. 4. Viruslardan sterillangan laboratoriya sharoitida maxsus sunʼiy ozuqa muhitida nihollarini koʻpaytirish tadqiqotlarini olib borish. 5. Koʻpaytirilgan nihollarni konteynerlarga ekib, moslashtiruvchi (adaptatsiya) xonalarida yetishtirish va parvarishlash. 6. Yetishtirilgan koʻchatlardan Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida 1,0 ga maydonda namunaviy koʻchatxonalarni tashkil etish.	2023-yil noyabr 2024-yil aprel, may 2024-yil may — avgust 2024-yil avgust 2024-yil sentabr, oktabr 2025-yil aprel	Ekologiya jamgʻarmasi mablagʻlari (300 mln soʻm) Mablagʻ talab etilmaydi Mablagʻ talab etilmaydi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar jamgʻarmalari (1,0 mlrd soʻm) Mablagʻ talab etilmaydi Ekologiya jamgʻarmasi mablagʻlari (100 mln soʻm)	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, Oʻrmon xoʻjaligi agentligi, Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Universitet

37.	Hududlarning tuproq tarkibini ilmiy asosda o'rganish orqali ko'chatlarni yetishtirish va o'rmonlar barpo etishni yo'lga qo'yish.	1. O'rmon fondi yer maydonlari va "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ko'chat ekiladigan hududlarda tuproq tarkibini o'rganish, xaritalarini xo'jalik shartnomalari asosida ishlab chiqish. 2. Tuproq namunalarini olish va tahlildan o'tkazish uslublarini ishlab chiqish. 3. Ishlab chiqilgan uslublarga asosan tuproq namunalarini olish va tahlildan o'tkazish. 4. Olingan ma'lumotlarga asosan, tuproqlarning tarqalishi bo'yicha xarita ishlab chiqish. 5. Natijalarga asosan tuproq-iqlim sharoitiga mos daraxt-buta turlari tavsiya etish.	2023 — 2025-yillar, iyul 2023-yil avgust 2023 — 2025-yillar, mart, noyabr 2023 — 2025-yillar, dekabr	Xo'jalik va subyektlar mablag'lari hisobidan (ish hajmiga qarab shartnoma asosida)	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, O'rmon xo'jaligi agentligi, Universitet
IX. O'rmon xo'jaligi texnikumining faoliyatini takomillashtirish					
38.	O'rmonchilik sohalariga oid yangi zamonaviy yo'nalishlarni ochish.	1. O'rmonchilik sohalariga oid yangi zamonaviy yo'nalishlarni ochish bo'yicha jahon tajribasini o'rganish. 2. Sohaga doir O'zbekistonda mavjud ish o'rinlari va talab darajasini aniqlash. 3. Quyidagi Yangi yo'nalishlar ochish va ularga qabul kvotalarini belgilash. <i>Yo'nalishlar:</i> Ekoturizm obyektlarini tashkil etish; O'rmon inspektori; O'rmon ekologi; O'rmon kadastri; O'rmonchilik iqtisodiyoti; Sog'lomlashtirish maskanlarini tashkil etish; Manzarali bog'dorchilik va gulchilik; Landshaftli loyihalash.	2023-yil iyun — avgust	O'rmon xo'jaligi texnikumi o'quv shartnomalaridan tushadigan mablag'lar hisobidan	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, O'rmon xo'jaligi agentligi, Universitet
39.	Texnikumni sohaga mos zamonaviy laboratoriya, innovatsion o'quv moddiy-texnika bazasi bilan ta'minlash.	1. Texnikum binosini kapital ta'mirlash. 2. O'quvchilar zamonaviy bilimlarni o'zlashtirishlari uchun zamonaviy laboratoriya (<i>in vitro, zamonaviy issiqxona</i>) zamonaviy kompyuter xo'asini (<i>GIS, MAXENT</i>) tashkil etish. 3. Dars jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish va interfaol usullarni qo'llash maqsadida moddiy-texnik baza bilan ta'minlash. 4. Qabul kvotalariga mos ravishda yotoqxona qurish.	2023-2024-yillar	Ekologiya jamg'armasi mablag'lari, Toshkent viloyati mahalliy budjeti mablag'lari hisobidan	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Toshkent viloyati hokimligi, O'rmon xo'jaligi agentligi, Universitet
40.	O'quv amaliyotlarini zamonaviy laboratoriyalar, ilmiy-tadqiqot muassasalarida o'tkazishni tashkil etish. Ishlab chiqarish amaliyotlarini ishlab chiqarish tashkilotlari, xo'jaliklar, xususiy sektorlarda tashkil etishni yo'lga qo'yish.	1. Texnikum va ilmiy-tadqiqot muassasalari o'rtasida shartnoma tuzish. 2. Texnikum o'quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish maqsadida sohaga oid ishlab chiqarish tashkilotlari, xo'jaliklar, xususiy sektorlar (<i>O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti, Darxon ilmiy-tajriba xo'jaligi, Bahor gullari, Flowers Garden, Toshkent botanika bog'i, R.R. Shreder nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy tajriba uchastkasi</i>) o'rtasida shartnoma tuzish. bog'dorchilik va uzumchilik ilmiy-tadqiqot instituti 3. Ishlab chiqarish amaliyotlarini sohaga oid ishlab chiqarish tashkilotlari, xo'jaliklar, xususiy sektorlarda o'tkazish.	2023-yil sentabr	Ekologiya jamg'armasi mablag'lari, O'rmon xo'jaligi texnikumi o'quv shartnomalaridan tushadigan mablag'lari hisobidan	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, O'rmon xo'jaligi agentligi, Universitet

41.	Texnikumning bino va inshootlarini rekonstruksiya va ta'mirlash uchun xalqaro moliya institutlari va xorijiy tashkilotlarning grantlarini jalb qilish.	Grant mablagʻlari hamda kreditlarni jalb qilish uchun choralarini koʻrish.	2023-2024-yillar	Xalqaro grantlar mablagʻlari	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi
X. Gidrometeorologiya texnikumining faoliyatini takomillashtirish					
42.	Respublikada amalga oshirilayotgan keng koʻlamli iqtisodiy islohotlar talabiga javob bera oladigan avtomat meteorologik stansiya mutaxassislari va meteorologik radiolokator operatorlarini tayyorlash.	1. Texnikum moddiy-texnika bazasini raqamli meteorologik asboblar bilan boyitish. 2. Mazkur qurilmalar boʻyicha oʻquv adabiyotlarini yaratish. 3. Oʻquv kurslariga xodimlarni tizimli jalb etish. 4. Xorijiy ilgʻor korxona va tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish. 5. Meteorologik parametrlar monitoringi va kadastri boʻyicha yagona axborot bazasini yaratish.	2023-yil aprel 2023-yil sentabr 2023-yil dekabr 2024-yil iyun 2024-yil dekabr	Jahon meteorologiya tashkiloti, manfaatdor vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari mablagʻlari, Xalqaro tashkilotlar mablagʻlari	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Fanlar akademiyasi, Qishloq xoʻjaligi vazirligi, Suv xoʻjaligi vazirligi, Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi, Universitet
43.	Avtomat meteorologik stansiyalarga texnik xizmat koʻrsatish uchun texnik ustalar tayyorlash.	1. Texnikum moddiy-texnika bazasini raqamli meteorologik asboblar bilan boyitish. 2. Mazkur qurilmalar boʻyicha oʻquv adabiyotlarini yaratish. 3. Oʻquv kurslariga oʻquvchi-yoshlarni tizimli jalb etish. 4. Xorijiy ilgʻor korxona va tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish.	2023-yil iyun — avgust 2023-yil sentabr 2023-yil dekabr 2024-yil dekabr	Jahon meteorologiya tashkiloti, manfaatdor vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari mablagʻlari	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, Fanlar akademiyasi, Qishloq xoʻjaligi vazirligi, Suv xoʻjaligi vazirligi, Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi, Universitet
44.	Zamonaviy avtomat agrometeorologik stansiyalar ishlab chiqish va ularga texnik xodimlar tayyorlash.	1. Agrometeorologik uskunalar ishlab chiqaruvchi xorijiy korxonalar bilan hamkorlik oʻrnatish. 2. Salohiyatli kadrlarni jalb etish. 3. Ishlab chiqarish va yigʻish ishlarini yoʻlga qoʻyish. 4. Qishloq xoʻjaligi tashkilotlari bilan shartnomalar imzolash. 5. Oʻquv uslubiy va metodik adabiyotlar tayyorlash.	2023-yil iyun — avgust 2023-yil sentabr 2023-yil dekabr 2024-yil iyun 2024-yil dekabr	Jahon meteorologiya tashkiloti, manfaatdor vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari mablagʻlari	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, Fanlar akademiyasi, Qishloq xoʻjaligi vazirligi, Suv xoʻjaligi vazirligi, Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi, Universitet
45.	Gidrologik stansiya va postlar xodimlariga zamonaviy raqamli gidrologik asbob-uskunalar boʻyicha dual (Toshkent shahri GMB va Toshkent viloyati GMB uchun) va sirtqi ta'lim shakli boʻyicha oʻquv kurslarini tashkil etish.	1. Texnikum moddiy-texnika bazasini raqamli gidrologik asboblar bilan boyitish. 2. Mazkur qurilmalar boʻyicha oʻquv adabiyotlarini yaratish. 3. Oʻquv kurslariga xodimlarni tizimli jalb etish. 4. Oʻzgidromet va Suv xoʻjaligi vazirligi bilan ikki tomonlama hamkorlikni ta'minlash. 5. Xorijiy ilgʻor korxona va tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish.	2023-yil iyul 2023-yil sentabr 2023-yil dekabr 2024-yil iyun 2024-yil dekabr	Jahon meteorologiya tashkiloti, manfaatdor vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari mablagʻlari	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Fanlar akademiyasi, Qishloq xoʻjaligi vazirligi, Suv xoʻjaligi vazirligi, Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi, Universitet

46.	Aerogeodezik va masofadan zondlash bo'yicha kunduzgi hamda ishlovchi xodimlar uchun dual va sirtqi ta'lim shakllarini joriy etish.	1. Texnikum moddiy-texnika bazasini boyitish. 2. O'quv adabiyotlarini yaratish. 3. Tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish. 4. O'quvchi-yoshlar va mavjud xodimlar uchun uzluksiz ta'lim olish imkoniyatini yaratish. 5. Xalqaro tashkilotlar va korxonalar bilan hamkorlik qilish.	2023-yil iyul 2023-yil sentabr 2023-yil dekabr 2024-yil iyun 2024-yil dekabr	Jahon meteorologiya tashkiloti, manfaatdor vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari mablag'lari	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Fanlar akademiyasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi, Universitet
47.	Talabalar uchun texnikumda sinoptik analiz va prognozlashtirish markazini tashkil etish.	1. Markazni bino va jihozlar bilan ta'minlash. 2. Salohiyatli kadrlarni jalb etish. 3. O'quv adabiyotlarini yaratish va xorijiy darsliklar bilan ta'minlash. 4. Sohaga ilg'or texnologiyalarni olib kirish. 5. Prognozlar ishlab chiqish va shartnomalar tuzish.	2023-yil avgust 2023-yil sentabr 2023-yil dekabr 2024-yil iyun 2024-yil dekabr	Jahon meteorologiya tashkiloti, manfaatdor vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari mablag'lari	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Fanlar akademiyasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi, Universitet
48.	Issiqxona effekti gazlari miqdori ortishi jarayonida gidrometeorologiya va ekologiya hamkorligini kompleks yo'lga qo'yish hamda zamonaviy ekoiqlimshunos kadrlar tayyorlash.	1. Gidrometeorologik omillar ta'sirida yuzaga keluvchi ekologik jarayonlarni o'rganish. 2. Atmosfera ifloslanishi jarayonini ekologik va gidrometeorologik nuqtai nazardan tahlil qilish hamda mazkur jarayonlar raqamli bazasini tuzish. 3. Sohaga ilg'or, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish. 4. Zamonaviy texnologiyalar bilan ishlay oladigan ekolog kadrlar tayyorlash. 5. Xavfli ekologik jarayonlarning ritmik atlasini yaratish.	2023-yil avgust 2023-yil sentabr 2023-yil dekabr 2024-yil dekabr 2025-yil dekabr	Jahon meteorologiya tashkiloti, manfaatdor vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari mablag'lari	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Fanlar akademiyasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi, Universitet
XI. Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini takomillashtirish					
49.	Global iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirini kamaytirish va uning oqibatlarini yumshatishga qaratilgan dolzarb muammolar yechimiga bag'ishlangan ilmiy loyihalarni bajarish hamda ilm-fan va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish.	1. Xorijiy tajribalarni o'rganish va ulardan olingan natijalar asosida loyihalarni shakllantirish orqali ilmiy-tadqiqot ishlanmalarni ishlab chiqish. 2. Har bir loyihaning tanqidiy tahlil qilinishi natijasida loyihalarni qayta ko'rib chiqish, ularning sifatini oshirish va olingan ilmiy natijalar doirasida sohada tatbiq etish. 3. Gidrometereologiya sohasiga tegishli bo'lgan global iqlim o'zgarishini inobatga olgan ilmiy loyihalarni amalga oshirish.	2023-2024-yillar Doimiy ravishda	Davlat ilmiy dasturlariga ajratilgan mablag'lar	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Gidrometeorologiya xizmati agentligi, Universitet
50.	Zamonaviy geoaxborot tizimlarini qo'llagan ho?da O'zbekiston tabiiy ko'llarining gidrologik rejimini modellashtirish.	1. Loyiha pasportini shakllantirish; 2. Loyiha konsepsiyasi va texnik yechimlarini yechish orqali loyihani shakllantirish. 3. O'zbekiston hududida joylashgan barcha ko'llar bo'yicha tegishli koordinatalar, tavsiflar, xarakterli belgilar bilan ma'lumotlar bazasini shakllantirish. 4. Elektron katalog yaratish, unda ko'llar bo'yicha barcha mavjud ma'lumotlarni to'plashni tizimlashtirish va turli shakllarda (batigrafiya, gidrokimyo, rejim va boshqalar) taqdim etish. 5. O'zbekiston ko'llari bo'yicha milliy axborot platformasini ishlab chiqish.	2023-yil iyun 2023-yil iyul 2023-yil sentabr 2024-yil yanvar 2025-yil dekabr	Davlat ilmiy dasturlariga ajratilgan mablag'lar	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Innovatsion rivojlanish agentligi, Gidrometeorologiya xizmati agentligi, Universitet

51.	O'zbekistonda atmosfera havosi ifloslanishi darajasi va aholi salomatligiga aerogen xavfni kompleks baholash asosida atmosfera havosi sifati monitoringi milliy axborot platformasini va uning mobil ilovasini yaratish.	1. O'zbekiston Respublikasi aholisining ob-havoga sezgirligi to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini yaratish. 2. Aholi salomatligi uchun meteorologik parametrlardan kelib chiqadigan xavfni baholash metodikasini ishlab chiqish. 3. O'zbekistonning tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda sanitariya qoidalari, me'yorlari va gigiyena me'yorlarini ishlab chiqish. 4. O'zbekiston Respublikasi aholisining ob-havo sharoitiga bog'liq qatlamlarini erta ogohlantirish tizimi milliy axborot platformasini yaratish.	2023-yil avgust 2023-yil dekabr 2024-yil yanvar 2025-yil yanvar	Davlat ilmiy dasturlariga ajratilgan mablag'lar	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Innovatsion rivojlanish agentligi, Gidrometeorologiya xizmati agentligi, Universitet
52.	Agrometeorologik kuzatuvlar va agrometeo prognozlarni avtomatik monitoring qilishning kompleks tizimini yaratish va uni rivojlantirish.	1. Loyiha pasportini shakllantirish. 2. Loyiha konsepsiyasi va texnik yechimlarini yechish orqali loyihani shakllantirish. 3. Agrometeorologik kuzatishlar, shu jumladan modellar natijalarini monitoring qilishning kompleks tizimini yaratish.	2023-yil oktabr 2024-yil dekabr 2025-yil noyabr	Davlat ilmiy dasturlariga ajratilgan mablag'lar	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Innovatsion rivojlanish agentligi, Gidrometeorologiya xizmati agentligi, Universitet
53.	Zamonaviy meteorologik monitoring, ob-havo prognozi tizimlarida matematik algoritmlarni qo'llagan holda prognozlash tizimlarini rivojlantirib borish.	1. Ob-havo prognozining COSMO-CA sonli modeli ma'lumotlari asosida xavfli gidrometeorologik hodisalar (kuchli shamol, jala yomg'irlari, sel toshqinlari) monitoring tizimi va uning mobil ilovasini yaratish. 2. "CARFFGS" tizimi asosida O'zbekiston hududlar kesimida sel toshqinlari haqida oldindan ogohlantirish interaktiv onlayn tizimini ishlab chiqish va tatbiq etish. 3. "MODSNOW" tizimi asosida O'zbekistonning tog'li hududlaridagi muzliklarning massa balansi o'zgarishini va kelgusidagi bashorat qilib borish monitoring tizimini ishlab chiqish va tatbiq etish. 4. Ob-havo prognozi tarmoqlarida joriy etilayotgan ogohlantirish tizimidan foydalanish bo'yicha ustuvorlik va ko'nikmalarni oshirish bo'yicha treninglar o'tkazish.	2023-2024-yillar davomida	Davlat ilmiy dasturlariga ajratilgan mablag'lar	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Innovatsion rivojlanish agentligi, Gidrometeorologiya xizmati agentligi, Universitet
54.	Parij bitimiga muvofiq O'zbekistonning belgilangan milliy hissasini amalga oshirish va monitoring qilish shaffofligini oshirish uchun "O'zbekistonda qishloq xo'jaligi va yerdan foydalanish sektorlarida salohiyatni mustahkamlash" loyihasini amalga oshirish.	1. BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha hadli konvensiyasiga muvofiq, mamlakat hisobotlarining sifati va muddatiga qo'yiladigan talablarning sezilarli darajada sifati oshirish. 2. Parij bitimi va BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha hadli konvensiyasi doirasidagi so'nggi qarorlarga muvofiq shaffoflikni oshirish tizimini yaratish. 3. Mamlakatlar tomonidan yangi hisobot shakliga bezarar va xatosiz o'tishni tashkil etish. 4. Issiqxona gazlari ajratmalari, iqlimni moliyalashtirish va issiqxona gazlari ajratmalarini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar natijalarini kuzatish orqali mamlakatning iqlim o'zgarishiga qarshi kurash bo'yicha sa'y-harakatlarining shaffofligini ta'minlash.	2023-2024-yillar davomida	BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) / Global ekologik fond (GEF) bilan hamkorlikda amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyiha mablag'lari	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Gidrometeorologiya xizmati agentligi, Universitet

55.	Xorijiy hamkor va ilmiy muassasalar bilan hamkorlikni rivojlantirish.	1. Yer tadqiqotlari instituti (GFZ-Potsdam, Germaniya) bilan muzliklarni monitoring qilish yuzasidan amaliy tadqiqot ishlarini olib borish bo'yicha anglashuv memorandumini imzolash. 2. Iqlim tadqiqotlari instituti (PIK-Potsdam, Germaniya) bilan O'zbekistondan iqlim o'zgarishi, qayta tiklanuvchi energiya resurslari va aholi salomatligi yo'nalishida hamkorlik kelishuvini imzolash. 3. Tadqiqot va ishlanmalar tashabbusi (CHUO universiteti, Yaponiya) bilan atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlarini GOSAT sun'iy yo'ldosh orqali monitoring va hisob-kitoblar yuritish tizimini O'zbekistonda joriy etish bo'yicha anglashuv memorandumini imzolash. 4. AQSHning geologiya xizmati (USGS, AQSH) bilan Geoinformatsion texnologiyalardan keng foydalangan holda suv resurslarini boshqarish, tabiiy ofatlarni prognozlash borasida hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha anglashuv memorandumini imzolash.	2023-yil iyul 2023-yil sentabr 2023-yil noyabr 2023-yil dekabr	Mablag' talab etilmaydi	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Gidrometeorologiya xizmati agentligi, Universitet
56.	"Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishi sharoitida chang bo'ronlari muammolari va ularning ta'sirini bartaraf etishda zamonaviy tadqiqotlar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazish.	1. Tadbir dasturi va konsepsiyasini ishlab chiqish. 2. Hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasi bilan kelishish. 3. MDH, Yevropa, Osiyo va boshqa mamlakatlar olimlari va mutaxassislarining taklifi bilan xalqaro konferensiya tashkil etish.	2023-yil sentabr 2023-yil noyabr 2024-yil aprel	Budjet mablag'lari, xalqaro tashkilotlarning grantlari, ijrochilar mablag'lari	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Gidrometeorologiya xizmati agentligi, Universitet
XII. Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan amalga oshirish rejalashtirilayotgan maqsadli ilmiy loyihalar					
57.	Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida Orol dengizining qurigan tubi florasini inventarizatsiyasini o'tkazish va muntazam yangilanib boruvchi raqamli ma'lumotlar bazasini yaratish.	1. Orol dengizining qurigan tubida belgilangan tadqiqot hududlarida sho'rlanish darajasi va florasini inventarizatsiyasini o'tkazish. 2. Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida hududlarning sho'rlanish darajasi va florasini raqamlashtirish. 3. Orol dengizining qurigan tubi florasini bo'yicha raqamli ma'lumotlar bazasini yaratish. 4. Orol dengizi qurigan tubi florasining muntazam monitoringini olib borish.	2023 — 2025-yillar	Davlat ilmiy dasturlariga ajratilgan mablag'lar	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Innovatsion rivojlanish agentligi, Universitet
58.	Orolbo'yi mintaqasi uchun chang bo'ronlarining shakllanish sharoitlari va tarqalish mintaqalarini prognozashtirish modelini ishlab chiqish.	1. Statsionar bo'lmagan modellashtirish tizimini ishlab chiqish va prognozashtirish mexanizmlarini tadqiq qilish. 2. Tadqiqot natijalari asosida yangi mezonlarni belgilash uchun xulosalar taqdim qilish. 3. Hududdagi ekologik holatning xavflilik darajasiga qarab ijtimoiy va ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish. 4. Chang bo'ronlarining shakllanish sharoitlari va tarqalish mintaqalarini prognozashtirishning dasturiy ta'minotini yaratish.	2023 — 2025-yillar	Davlat ilmiy dasturlariga ajratilgan mablag'lar	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Innovatsion rivojlanish agentligi, Universitet

59.	Sanoat korxonalaridan chiqadigan oqova suvlarni tozalashning bioinjenerlik qurilmasini yaratish (amaliy).	1. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy texnologik jarayonlari hamda tashkilotlarda yo'lga qo'yilgan oqova suvlarni tozalash jarayonlari haqida ma'lumotlar to'plash. 2. Sanoat va ishlab chiqarish korxonalaridan chiqadigan chiqindi oqova suvlarni tozalash uchun taklif etilayotgan bioinjenerlik qurilmasi orqali tozalangan chiqindi oqova suvlarni turli xil kimyoviy moddalardan tozalash. 3. Tozalash qurilmasining gidravlik hisobini hisoblash, optimal gidravlik parametrlarini aniqlash, suvni tindirish inshooti o'lchamlarini hisoblash. 4. Turli xil korxonalardan chiqadigan oqova suvlarni tozalashning mexanik konstruksiyasi qurilmasidan foydalanish bo'yicha maxsus qo'llanmalar ishlab chiqish.	2023 — 2025-yillar	Davlat ilmiy dasturlariga ajratilgan mablag'lar	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Innovatsion rivojlanish agentligi, Universitet
-----	---	---	--------------------	---	--

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.06.2023-y., 07/23/174/0348-son; 27.07.2023-y., 06/23/114/0527-son; 03.08.2024-y., 06/24/106/0571-son; 04.10.2024-y., 06/24/149/0772-son; 19.11.2025-y., 06/25/217/1060-son; 09.12.2025-y., 06/25/243/1128-son; 30.03.2026-y., 07/26/110/0287-son)